

NARPAY TUMANI TOPONIMLARINING TASNIFI

Omonqulov Suhrob Sanaqul o‘g‘li
Narpay tumani 36-maktab o‘qituvchisi
Ne’matova Dilrux Dustmurodovna
SamDChTI Narpay xorijiy tillar
fakulteti o‘qituvchisi

Tilshunoslik fanidan bizga ma`lumki, tilimizdagi ot turkumiga mansub so`zlar ikki katta guruhga ajratiladi. Bular atoqli otlar va turdosh otlar.

Turli ilmiy ishlarda bularga turliche ta`riflar keltiriladi. Jumladan, otlarning turdosh va atoqli otlarga bo`linishi shunday ta`riflanadi: “Bir turdag'i predmet va xodisalarning birini ajratib ko`rsatuvchi otlar atoqli otlar, bir jinsdagi predmet va xodisalarning umumiyligi nomini bildiruvchi otlar turdosh otlar deyiladi”.⁸

Biroq otlarning turdosh va atoqli otlarga bo`linishi faqatgina yuqoridagi shu ikki xususiyatgagina bog`liq bo`lmasdan bu otlar o`rtasida yana bir qancha farqlar borki, jumladan, turdosh otlar o`z mustaqil lissoniy materialiga ega bo`lsa, atoqli otlar bunday lissoniy materialga ega emasligi bilan ham farqlanadi.

Bizning ishimizni o`rganish oyekti bo`lgan toponimlar ham geografik nom so`z bo`lib, atoqli ot hisoblanadi. Atoqli otlar til taraqqiyotining qiyosan keyingi bosqichlarida turdosh otlar (apellyativlar)dan kelib chiqqan. Qadimiylarda atoqli otlar bo`lmagan deyishadi. Avstraliya, Afrika va Amerikaning tub joy xalqlari — aborigenlar tillarida atoqli otlar juda kam ekan. Bunday tillarda turdosh otlar, qandaydir so`z birikmalari atoqli otlar vazi-fasini bajarar ekan. Ana shunday so`z birikmalari tobora turg'un shakl oladi. Odamlar tevarak-atrofidagi o`zlariga tanish kichik hududdagi joylarni «tepadagi qo`rg`on», «Sel keladigan soylik», «Qo`y qirilgan yaylov», «Chuqur soy» kabi butun bir gaplardan iborat so`z birikmalari bilan ataydilar.

Konkret geografik obyektlarni ifodalaydigan bunday so`z birikmalari va turdosh otlar ko`p bo`lmaganidan bora-bora atoqli otlarga aylanadi.

Geografik nomlaming paydo bo`lishi umumiyligi tushunchaning konkretlashishi va individuallashishi oqibatidir.

Turdosh otlar ana shu yo'l bilan toponimlashadi, ya'ni toponimlarga aylanadi. Masalan, olma so'zi umuman olma bog'larini ifodalaydigan umumiyligi tushuncha ekan, turdosh otligicha qolaveradi. Bu tushuncha

⁸ Hozirgi o`zbek adabiy tili. – Toshkent: O`qituvchi, 1980. – 215-bet.

individuallashsa, konkret bir obyektni ifodalay boshlasa va shunday qilib ayrim bir tushunchani bildirsa, atoqli otga aylanadi qoladi.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, atoqli otlarning ko`pchiligi turdosh otlar, ma`lum qismi boshqa turkumga oid so`zlar asosida paydo bo`ladi. Shunday ekan, atoqli otlar o`z-o`zidan paydo bo`lmaydi, hamda ular faqat turli turdosh otlardangina paydo bo`lmaydi ham. Atoqli otlarning, jumladan toponimlarning ham yasalishida yoki paydo bo`lishida turli so`z turkumlari, so`z birikmalari va bazan gaplar ham ma`lum ma`noda toponimga aylanishi mumkin.

Bundan tashqari toponimlarning paydo bo`lishi va yasalishida ya`ni ularning negizida ba`zi bir suffiks va affikslar bilan birligida (bularga keyinroq to`xtalamiz) onamastikaning boshqa birliklarini ham ko`rishimiz mumkin. Jumladan, antroponim (kishi ismi), zoonim (hayvon nomi), etnonim (qabila va urug`lar nomi) va shuningdek toponimlarning yangi toponim yasalishida ishtirok etayotganini (topotoponimda) ko`rishimiz mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan yana shunday xulosaga kelish mumkinki, atoqli otlarning negizini faqatgina turdosh otlar tashkil qilmasdan, ularning negizida sifatlar, sonlar, fe`llar, olmoshlar, modal va taqlid so`zlar ham kelishi mumkin. Shu sababli bunday atamalar majmuini apellyativ, apellyativ leksika yoki lug`viy asos (antroponimik asos, etnonimik asos, toponimik asos) deb yuritish maqsadga muvofiqli.

Toponimlar va ularning lug`viy asoslari to`g`risidagi fikrimizni xulosalab shuday to`xtamga kelish mumkin:

Har qanday til lug`aviy tarkibidagi ot turkumiga mansub so`zlarni ikki katta guruhga ajratib o`rganiladi .

Bular turdosh otlar va atoqli otlar .Bu ikki guruh so`zlarning mohiyati tilshunoslikka oid adabiyotlarda ayniqsa , tilga oid darslik va qo'llanmalarda izohlab kelinadi .

Ot leksema bir turdag'i predmetlarning hammasini nomlashi yoki bir turdag'i predmetlardan bittasini atashi, ajratib ko`rsatishi jihatidan quyidagicha guruhlanadi .

1. Turdosh ot bir turdag'i predmetlarning nomi : qalam , koptok .
2. Atoqli ot yakka predmetlarning atamasi .

Atoqli otda umumlashtirish leksik jihatdan odatda shartli bo`lib , yakka bir predmetni o`zi kabi boshqa yakka predmetdan farqlab berishga xizmat qiluvchi tamg'a vazifasini bajaradi¹.

¹ O`zbek tili grammatikasi . 1-tom .T. 1975, 127-bet.

Bir qator tilshunos olimlarning turdosh va atoqli otlarga bo'linishi otning bu shakl turiga shunday ta'riflar beriladi . Bir xildagi predmet va hodisalarning birini ajratib ko'rsatuvchi otlar atoqli otlar deyiladi .

Bir turdag'i predmetlarning umumiy nomini bildiruvchi otlar turdosh otlar deyiladi . Bordi-yu bunday tasnifning asosi ma'no bo'ladigan bo'lsa , aslida mantiqan qayd qilingan guruhi :

- 1) umumlashma tushuncha ifodalovchi otlar .
- 2) yakka tushuncha ifodalovchi otlar .
- a) lug'aviy ma'no ifoda qiladigan otlar ,
- b) lug'aviy ma'no ifoda qilmaydigan otlarga bo'linishi lozim edi .

Chunki tilshunoslikda atoqli otlar lug'aviy ma'no ifodalarydi degan qarash keng tarqalgan .

Turdosh otlar bir jinsdagi shaxs , narsa , voqe'a – hodisalarning nomlari bo'lib , shular haqida umumiy predmetlik tushunchasini anglatadi . Toponimik va antroponimik nomlar hamisha til bazasida yaratiladi . Ularni yasashda tilning turmushda ko'p qo'llanuvchi so'z yasash modellaridan , qo'shma so'zlardan , so'z birikmalaridan va hatto butun bir gaplardan foydalanish mumkin .

Atoqli otlarning barchasi ham shaklan lug'aviy asosiga ko'ra turdosh ot yoki boshqa til oddiy so'zlarga teng kelavermaydi . Masalan , qo'shma atoqli otlar (Toshrobot , Qumariq) , qisqargan shaklli nomlar , so'z birikmasi yoki gapga teng modellar (yaxshi niyat istiqlol mevasi) yoxud o'zga tillardan o'zlashgan , o'zbek tilida lug'aviy asosi mavjud bo'limgan nomlar (Mendeliyev maktabi). Mana shunday onomastik modellar go'yoki atoqli otlarning o"z haqiqiy lug'aviy asosi mavjusdekk taasurot tug'diradi .

Ammo aslida qayd qilingan nomlar negizida ham birdan ortiq oddiy so'zlar yotganini ko'ramiz . Bu so'zlar esa bir tomonidan faqat turdosh ot emas , unda boshqa so'z turkumlarining elementlari ham bor .

Ikkinchidan faqat ular leksema (leksik birlik), ya'ni so'z holidagi materialdan emas , sintaktik birliklar bo'lmish so'z birikmasi , gaplardan ham tuzilgandir . Shunga qaramay tilshunoslikada atoqli otlardan yasaladi deyilgan mulohaza keng tarqalgan . Atoqli otlarning ko'pchiligi turdosh otlar , ma'lum qismi boshqa turkumga oid so'zlar asosida paydo bo'ladi degan fikr haqiqatga yaqindir .

Taniqli nomshunos O.T.Matchonov , B.D.Bandalita fikrlariga suyangan holda toponimlar tarkibida quyidagi lisoniy vositalar mavjud deb hisoblaydi .

Bu to'plam quyidagilardan tashkil topadi .

- 1) toponimik leksika , ya’ni aholi yashaydigan joylarni nomlash uchun foydalanadigan barcha so’zlar yig’indisi ;
- 2) barcha toponimik formatlar yig’indisi ;
- 3) toponimlar yasashda ishtirok etuvchi barcha grammatik kategoriylar yig’indisi ;
- 4) toponimiyada foydalanuvchi sintaktik aloqalarning barcha tiplari ;
- 5.) toponimni tashkil qiluvchi so’zlarning fonetik shakli ;
- 6) tadqiq qilinayotgann toponimiyada uchraydigan lisoniy vositalar bag’ishlanishining barcha tiplari .

Mana shu nuqtai nazardan o’zbek tili onomastikasi-(atoqli otlari) ning lug’aviy asoslari majmui yoki A.B.Superinskaya qo’llagan “leksemalar reperaturasi “ haqida yohud oid o’zbek tili antroponimik leksikasi haqida gapirish mumkin . Bu o’rinda apillyativ “lug’aviy asos “ termini va tushunchalari mos keladi .

Narpay toponimiyasini o`rganish maqsadida olib borilgan kuzatishlardan shu narsa ayon bo`ldiki, tuman toponimlarining negizini faqatgina o`zbek (turkiy) tiliga xos lug`aviy asoslar emas, balki boshq tillarga xos bo`lgan lug`aviy asoslar ham tashkil etishi ko`rish mumkin. Bunga misol qilib Ravot, Chorshanbi, Kosagaron, Qozikent, Nog`oraxona kabi toponimlarni ko`rsatishimiz mumkun.

Narpay toponimlarini kuzatish jarayonida biz 100 dan ortiq toponimlarni yig`dik, ularni qanday ob`ektning nomi bo`lib kelayotganiga qarab bir necha guruhlarga bo`lib tasniflash mumkin:

1.Shahar, qishloq, ovul va shaharcha nomlari.

Onamastikada ushbu tipga kiruvchi toponimlar: *astionimlar* – har qanday aholi yashaydigan joy nomi, *komonimlar* – qishloq va shahar tipidagi joy nomlari. Bu nomlar umumiyligi bilan – *oykonimlar* deb nomlanmoqda. Oykonim degan-da, shahar, qishloq, ovul va boshqa aholi punktlari tushuniladi.⁹ Shahar yirik aholi punkti bo`lib, iqtisodiy, ma’muriy va madaniy markaz sanaladi. Shahar so’zi sanskritcha «davlat», «mutlaqi hokimning qarorgohi» ma’nosini anglatadi. Qadimda har qanday yirik aholi punkti, xususan shahar atrofi devor, hatto ichma-ich ikki qavat devor bilan o’ralgan edi. Ichki shaharning (Xorazmda

Ichqal`a) — shahri darun, tashqi shahar (Xorazmda Dishan qal`a) — shahar berun deyilishi shundan.

Qadimgi turk tilida shahar — baliq deyilgan. Mahmud Koshg’ariy turkiy tilda «shahar» o‘rniga kend so’zi ishlatalishini, lekin o‘g‘iz qabilasi vakillari

⁹ Qurayev S. Toponimika. Qo’llanma. – Toshkent: O ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 50-bet.

kend deganda qishloqni tushunishlarini aytgan, hozir ham o‘g‘iz guruhiiga kira-digan ozarboyjon tilida qishloq o‘rniga kend so‘zi ishlataladi. Qishloq aslida kichikroq aholi punkti. Qishloq «qishlanadigan joy» ma’nosida bo‘lib,yayloq (yaylov) — «yozda turiladigan joy» so‘zining aksi.

Aholi punktlari aholisining soni va iqtisodiy ma’muriy ahamiyatiga qarab shaharcha (posyolka), ovul (kichik qishloq yoki chorvadorlar qishlog‘i), qo‘rg‘oncha (katta qishloqdan ajralib chiqqan qishloq), mahalla(mustaqlil qish-loq yoki katta qishloqning bir bo‘lagi) kabi turlarga bo‘linadi.

Narpay tumanidagi shahar va shaharchalar soniga e`tibor bersak, bu hududda 1ta Oqtosh shahri va Mirbozor shaharchasi mavjud.

Oqtosh toponimi haqida to`xtaladigan bo`lsak, **Oqtosh** atamasi turkcha “oq” va “tosh” so`sidan yasalgan qo`shma so‘z bo`lib, 1944-yildan boshlab shahar tipidagi qo`rg‘oncha maqomini olgan. Hududning bunday nomlanishiga sabab esa shu hudud yaqinidagi tog`dan oq marmar qazib olinganligi ko`rsatiladi. Oqtosh nomi unchalik qadimiy bo`lmasdan, XIX asrda paydo bo`lgan degan taxminlar mavjud. Hududning qadimiy nomi esa Zirabuloq bo`lganligi ma`lum.

Mirbozor shaharchasi nomiga to`xtaladigan bo`lsak, bu nomning ildizi juda qadim tarixga - ilk o`rta asrlarning V-VII asrlariga borib taqaladi. Hududdagi qishloqlar nomlari ham juda qadim tarixga borib taqaladi: Sarbozor, Salovat, Oltio`g`il, Nayman, Oytomg`oli, Totkent, Ravot, Olchin, Tepaqo`rg`on, Zoirota, O`zbekkenti, Ko`kota, Toshko`prik, Xo`jaqo`rg`on, Do`rmon va boshqalar.

Narpayning qishloqlari va ularning bunday nomlanishi haqidagi turli afsonalar keng tarqalgan.

Narpay toponimlarining ko`pchilagini etnotoponim va antropotonimlar tashkil qiladi. Hududning jug`rofiy xususiyatlarini aks ettiruvchi nomlarning ko`pchilagini gidronim va oronimlar tashkil qiladi.

2.Mahallalar nomi.

Mahallar nomi ham oykonimlarning bir qismi sanaladi. Mahallar nomi haqida turli ilmiy ishlar va izlanishlar olib borilgan¹⁰ bo`lsada hali bu borada qilinishi kerak bo`lgan talay ishlar turibdi.

Narpay tumanidagi mahallalar nomining bir qismini etnotoponimlar: Arabxona, Qozyoqli, Oltio`g`il, Bolg`ali, Nog`oraxona, Mang`it, Oytomg`oli, Maydaqazooq, Qozikent, O`zbekkenti; bir qismini (asosan Oqtosh shahrida) antropotonimlar tashkil etadi: N.O`rinov, Amir Temur, Islom shoir, Alisher Navoiy, Muqimiy, Tinchlik, X. Aliqulov, A.Xaqnazarov, O. Abduraximov, Islomobod, To`xta Roziqov, Zoirota, A.Rasulov; hududning boshqa jug`rofiy va ijtimoiy-siyosiy xususiyatini aks ettiruvchi nomlardan: Duoba, Yangi-ariq,

¹⁰ Qorayev S. Toshkent mahallalari. – Toshkent: Oqituvchi, 1977. – 13-bet.

Yangiqishloq, Navro`z, Do`slik, Mustaqillik, O`zbekiston, Oqoltin, Istiqlol, Makiyanjar, Uchariq, Narpay-ariq, Qozoqariq kabilar uchraydi.

3.Maydonlar, o`yingohlar va xiyobonlar nomi.

Stadionlar: Sirojiddin Bozorov nomidagi stadion, “G`alaba” stadioni;

Hiyobonlar: “Yoshlar” xiyoboni, Bahrom Sodiqov nomli xiyobon.

4.Qal`alar va qo`rg`onlar nomi.

Narpay tumanida qadimiy qal`a va qo`rg`onlarning bugungi kunga qadar xaroba va nomlari hamda ular haqidagi ko`plab afsona va rivoyatlar saqlanib qolgan. Bu ob`ektlarning har biri o`ziga xos nomlarga ega. Chunonchi, Mirbozor qo`rg`oni va uning tarixi haqida xalq orasida turli fikrlar mavjud.

“Mirbozor” – arabcha “mir” (amir so`zining qisqargan shakli¹¹) yoki “miri” (amirga xos: xazinaga oid, tegishli; besh tiyinli chaqa, besh tiyin¹²) va forscha “bozor” (bozor; savdo rastasi; aholi savdo qiladigan joy¹³) so`zlarining qo`shilmasidan paydo bo`lgan bo`lib, amirga tegishli bozor, bosh bozor, markaziy bozor kabi ma`nolarni anglatadi.

“Mirbozor” bu shu nom bilan ataluvchi bozor va uni qurshab turuvchi qo`rg`on nomi hisoblanadi. Mirbozor qo`rg`onining qachon bunyod bo`lganligi haqida aniq ma`lumot uchramasada, biroq bu qo`rg`onning tarixini qo`rqmasdan ilk o`rta asrlar – V-VII asrlar deb ko`rsatish mumkin. Bunday xulosaga kelishimizga bir necha sabablar bor, albatta. Bunday sabablar ichida eng ishonarli dalil deb shuni ko`rsatishimiz mumkinki, Mirbozor qo`rg`oni xuddi Zirabuloq qo`rg`oni (Oqtosh shahrining eski nomi) kabi beklik va hokimlikning ma`muriy markazi hisoblangan va bu qo`rg`onda bekning doimiy askarlari va xizmatkorlari bo`lgan. Qo`rg`on atrofida esa askarlar va xizmatkorlar oilasi yerlari mavjud bo`lgan va yashagan. Qo`rg`on begining xizmatkorlari va askarlarini ilk o`rta asrlarda “chokar” – xizmatkor, chorakor, malay¹⁴; deb atashgan. Bu haqda tarix kitoblarida esa chokarlarga nisbatan V asrda qishloq va voha hokimining shaxsiy qo`riqchi va askarlariga nisbatan aytilganligini korish mumkin. Xullasi kalom, Mirbozor qo`rg`onining tiklanish tarixiga qaytar ekanmiz, Mirbozor hududininng g`arbiy qismida hozirgi kunda fonetik hodisaga uchrab, Chaqar nomini olgan katta QFY joylashgan. Yuqoridagi fikirlarga tayangan xolda va hududdagi boshqa saqlanib qolgan nomlarga tayanib shunday xulosaga kelish mumkinki, Mirbozor qo`rg`oni yurtimizga arablar bosqinidan avval ham mavjud bo`lgan, faqatgina avvalgi

¹¹ O`zbek tilining izohli lug`ati. 5 jildlik - 2-jild. – Toskent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat milliy nashriyoti, 2006. - 599-bet.

¹² O`zbek tilining izohli lug`ati. 5 jildlik - 2-jild. – Toskent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat milliy nashriyoti, 2006. - 599-bet.

¹³ O`zbek tilining izohli lug`ati. 5 jildlik – 1-jild. – Toskent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat milliy nashriyoti, -298-bet.

¹⁴ O`zbek tilining izohli lug`ati. 5 jildlik – 4-jild. – Toskent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat milliy nashriyoti, -505-bet.

nomi boshqacha bo`lgan. Shu o`rinda yana shu narsaga etiborni qaratmoq kerakki, Mirbozor SHFY tarkibida Sarbozor nomli mahalla mavjuddir. “Sarbozor” so`zi fors tilidan olingan bo`lib “bosh bozor” degan ma`noni anglatadi.

Narpayning eng qadimiy va markaziy qo`rg`onlari orasida yana biri bu Zirabuloq qo`rg`onidir. “Zirabuloq” atamasi forscha “zira” (ziradoshlar oilasiga mansub ko`p yillik xushbuy o`simplik va uning urug`i¹⁵) va o`zbekcha “buloq” (yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma.) so`zidan tashkil topgan bo`lib, shu hududda qadimiy buloq bo`lganligi va uning atrofida xushbo`y ziravorlar o`sganligi haqida ma`lumot beradi. Bu joy nomi VII asrlardayoq manbalarda tilga olingan bo`lib, Qoratog` etaklaridagi bu xushmanzara joy va unda o`suvchi ziravorlar hamda shifobaxsh buloq suvlari bilan mashhur bo`lgan. Keyinchalik bu joylar odamlarni o`ziga jalg` etib, bu hududda Oqtosh qishlog`i paydo bo`lgan¹⁶. Zirabuloq qo`rg`oni Buxoro amirligining Zirabuloq bekligining markazi hisoblangan. Zirabuloq qo`rg`onida 1868-yildagi Buxoro va Chor Rossiyasi o`rtasidagi o`zara xal qiluv janglaridan biri va sulh tuzilgan. Hozirgi kunda Zirabuloq nomi temiryo`l stansiyasi nomidagina saqlanib qolingga.

Tumanda shuningdek bugungi kuga qadar faqatgina xarobalari, o`rni yoki ma`lum qismi saqlanib qolgan qo`rg`onlar nomi bugunga qadar saqlanib qolgan: Xo`jaqo`r-g`on (Qadim QFYda joylashgan), Yangiqo`rg`on, Tepaqo`rg`on va Qo`rg`oncha (Yangiqo`rg`on QFYda joylashgan) va boshqalar.

5. Yo`llar va ko`chalar nomi.

Nomshunoslikda harakatlanish uchun mo`ljallab qurilgan yo`llar va ko`chalar nomi umumiyligi nom bilan dromonimlar deyiladi. Bu guruhg`a kiruvchi shohko`chalar, ko`chalar, torko`chalar, berk ko`chalar va b. godonimlar deb ataladi.

Narpay tumani hududidagi toponimlarning qadimiyligini izohlab turuvchi sabablardan eng asosiysi shuki, Narpay tumani hududidan Sharq-u G`arbni 2000 ming yildan ortiq bog`lab turgan vao`zaro savdo-sotiq yo`nalishi bo`lgan qadimiy Buyuk Ipak Yo`li o`tganligidir. Bu yo`l o`tgan joylardan tarixdan ham ma`lumki, qadimiy karvonsaroylar va rabotlar hamda qo`rg`onlar mavjud bo`lgan. Narpay tumanida ham shunday qadimiy joylar mavjud.

Sho`rolar hukumati davrida Respublikamizning barcha hududlarida olib borilgani kabi Narpay tumanida ham ko`plab nomlar, shu jumladan, toponimlar ham ruscha antroponomislardan iborat bo`lgan. Mustaqillikka erishganimizdan so`ng O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14

¹⁵ O`zbek tilining izohli lug`ati. 5 jildlik - 5-jild. – Toshkent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat milliy nashriyoti, 2006. -135-bet.

¹⁶ Mansur Aloviddinov. 25 yoshli paxlavon. - 1992-y

iyulda “O’zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma’muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 120 –sonli maxsus qarori qabul qilingan. Bu qarorda “O’zbekiston Respublikasidagi ma’muriy-hududiy tuzilish, toponimik ob’ektlarga nom berish va ularni nomlarini o’zgartirish masalalarini hal etish tartibi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining 12- moddasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining aholi masalalari bo'yicha qabul qilingan standartlariga mos ravishda qishloq aholi punktlarini ro'yxatdan o'tkazish va zarur hollarda ularni shaharchalar toifasiga kiritish bo'yicha iltimosnomalar taqdim etish vazifasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar xokimliklariga yuklatildi.¹⁷

Yuqoridagi tashviqot va qaror hamda qonunlardan so`ng tumandagi yo'llar va ko`chalar nomi ham yangilandi: “Oqtosh-Alisher Navoiy” yo’li, “Ittifoq” yo’li, “Chaqar” yo’li, “Oqtosh-Mirbazor” yo’li, “Mirbazor-Xatirchi”yo’li, “Oqtosh-Xo`jaqo`rg`on” yo’li, “Oqtosh-Mushkent” yo’li; Imom al-Buxoriy ko`chasi, Mirzo Ulug`bek ko`chasi, Amir Temur ko`chasi, Navruz ko`chasi, Akbar Jamilov ko`chasi, Tinchlik ko`chasi va boshqalar.

Narpay tumani toponimlarining boshqa turlari haqida keyingi ishlarimizda to‘xtalib o’tamiz.

¹⁷ O’zbekiston Qonun hujjatlari to’plami –T., 2005. iyul №28-29 .